

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026- yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-may holatiga ko'ra viloyatda 3056 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 652 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,3 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 606 tasi (19,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 256 tasi (8,4 %) kiyim ishlab chiqarishga, 251 tasi (8,2 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat, 196 tasi (6,4 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda, 181 tasi (5,9 %) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish.

Korxonalar soni
1- may holatiga ko'ra



II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda korxonalar tomonidan 15 365,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	15 365,6	107,4
Qarshi sh.	1 826,9	112,4
Shahrisabz sh.	182,5	108,6
tumanlar:		
G'uzor	1 833,1	105,2
Dehqonobod	398,4	112,2
Qamashi	256,8	100,4
Qarshi	962,6	102,1
Koson	829,8	124,2
Kitob	704,4	107,4
Mirishkor	329,7	106,6
Muborak	329,5	107,2
Nishon	3 950,9	100,6
Kasbi	900,7	104,2
Ko'kdala	110,1	106,8
Chiroqchi	172,3	105,7
Shahrisabz	306,1	101,1
Yakkabog'	412,8	108,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumaniida (22 586,5 ming so'm), G'uzor tumanida (7 882,1 ming so'm), Qarshi shahrida (5 956,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 125,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Koson tumanida (121,5 %), Qarshi shahrida (110,4 %), Dehqonobod tumanida (109,9 %), Shahrisabz shahri (106,7 %), Yakkabog' tumanida (106,4 %), Kitob tumani (105,3 %), Muborak tumani (105,3 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-aprel oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 12 748,1 mlrd. so'm, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,0 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 605,1 mlrd. so'm (3,9 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 924,8 mlrd. so'm (12,5 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 87,6 mlrd. so'm (0,6 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2026- yilning yanvar-aprel oylarida

III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 9,6 ming tonna Yumshoq bug'doy va spelta uni (2025- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 25,6 % ga kamaygan), 38,3 ming tonna paxta tolasi (47,6 % ga ko'paygan), 325,0 ming litr aroq mahsulotlari (32,7 % ga kamaygan) hamda 71,9 ming tonna kaliy xlorid (8,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-aprel*	2025- yil yanvar-aprel*	2026- yil yanvar-aprel*
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	15,1	12,9	9,6
ip kalava, tonna	23 616,9	21 292,0	17 760,2
Aroq, ming litr	514,8	482,7	325,0
Kaliy xlorid, ming t.	66,2	66,5	71,9
Dizel yoqilg'isi, ming t.	84,7	131,7	81,0
Poliyetilen, ming t.	48,3	48,0	48,2
Neft, ming t	3,6	3,1	2,5
Tabiiy gaz, mln kub.m.	22,5	142,3	140,2
Gaz kondensati, ming t.	36,0	37,0	42,8
Portlandsement, ming t.	579,1	521,4	588,1

**2025-2026- yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,0 % (2025- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2025- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,9 %)ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2025- yilning yanvar-aprel oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,6 % (3,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,3 % (30,6 %), quyi texnologiyali 38,5 % (65,1 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 62,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 30,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-aprel*	2025- yil yanvar-aprel*	2026- yil yanvar-aprel*
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	2 662,1	3 589,8	2 246,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 239,6	1 128,2	346,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 0,9 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 86,0% ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-aprel*	2025- yil yanvar-aprel*	2026- yil yanvar-aprel*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	46 603,0	50 273,0	50 735,3
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3 927,2	4 515,6	8 400,9

*2025-2026- yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 080,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 34,1 % ni tashkil etgan.





V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
75 221-32-36 (7010)
